

## **«Asaka» bank 1,5 mln.donadan ziyod plastik kartochkalarini muomalaga chiqardi**

Hozirgi kunda mamlakatimiz to'lov tizimini rivojlanishida bank plastik kartochkalari ahamiyati juda muhimligi hammaga ma'lum. Chunki plastik kartochkalar birinchidan, aholiga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, stipendiya va pensiya to'lovlarini o'z vaqtida to'lash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, aholi tomonidan kommunal to'lovlar bo'yicha qarzdorliklarni o'z vaqtida to'lash, savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda xarid qilingan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va tezkor amalga oshirish imkoniyatini yaratmoqda.

Plastik kartochkalar nainki bank-moliya tizimi, balki mamlakatimiz to'lov tizimi istiqbolini belgilovchi eng muhim vositaga aylanayotganligi quvonarli holdir. Buning muhimligini har bir fuqoro yahshi anglamoqda. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda aholining 90 foizi ish haqi, stipendiya va nafaqa olishda plastik kartochkalarda foylanmoqda. Aholining 85 foizi bitta kartochkadan, 15 foizi ikkita kartochkadan va 5 foizi uch va undan ko'p kartochkadan foydalanmoqda.

Plastik kartochkalar tizimini rivojlantirishda va kengaytirishda «Asaka» Aksiyadorlik tijorat banki ham faol ishlar olib bormoqda. «Asaka» bank 1999 yilning may oyidan boshlab o'z so'm plastik kartochkalarini muomalaga chiqara boshlagan. Bank tomonidan 2015 yil 1 oktyabr holatiga 1 577,7 ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 199,7 ming donaga ko'paydi.

Savdo-servis korxonalariga, bank kassalariga hamda kommunal va boshqa xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish shoxobchalariga o'rnatilgan to'lov terminallari soni 10 146 donani tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 373 donaga ko'paydi.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2015 yil 1 oktyabr holatiga plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar miqdori 1 409,2 mlrd.so'mni tashkil qildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172,6 mlrd.so'mga o'sdi.

«Asaka» bank tomonidan o'z mijozlari va shu bilan birgalikda boshqa tijorat banklari mijozlari bo'lmish korxonalar va tashkilotlarda "ish haqi" loyihalarini joriy etish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. 2015 yil 1 oktyabr holatiga 8837 ta korxonalar va tashkilotlarda "ish haqi" loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalar orqali xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish maqsadida bank jamg'arma kassalari va barcha minibanklariga 228 dona to'lov terminallari o'rnatildi. Shu jumladan, bank tomonidan o'rnatilgan 46 infokiosk va 27 bankomat orqali mijozlar plastik kartochka orqali, qaysi bank emitenti bo'lishidan qat'iy nazar, barcha kommunal xizmatlar bo'yicha va uyali aloqa uchun to'lovlarni "o'z-o'ziga xizmat" rejimida tezkor amalga oshirish, o'z hisob raqamidagi pul mablag'lari holati

bo'yicha ma'lumotlarni olish, pul mablag'larini plastik kartochkalarga yuklab olish imkoniyati yaratildi. 2015 yil 1 oktyabr holatiga plastik kartochkalar orqali kommunal xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 50,6 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Yangi tizimdagi «UZCARD EMV» (onlayn) plastik kartochkalari egalariga infokiosk va bankomatlar orqali «SMS inform» xizmat turiga ulanib, o'z hisob raqamiga kirim yoki chiqim qilingan pul mablag'lari to'g'risida, savdo-servis tarmog'i orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar to'g'risida va boshqa axborotlarni tezkor ravishda olish imkoniyati yaratildi. 2015 yil 1oktyabr holatiga mazkur xizmatdan foydalanuvchilar soni 139 969 nafardan oshdi.

O'zbekistonning yirik banklari qatorida «Asaka» bank tomonidan so'm plastik kartochkalar rivojlantirilishi bilan birga xalqaro plastik kartochkalar orqali ham xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Xalqaro kartochkalar tizimini joriy etilishi xalqaro munosabatlarda, xalqaro savdo, turizm va boshqa yo'nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro plastik kartochkalar «MasterSard» orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimini kengaytirish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda. 2015 yil 1 oktyabr holatiga bank tomonidan muomalaga chiqarilgan xalqaro plastik kartochkalar soni 140,1 ming donani tashkil etdi.

Plastik kartochkalar tizimini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, modomiki pul-kredit munosabatlarida naqd pul aylanmasi qat'iy tartibga solinadi, muomaladagi naqd pul hajmi keskin qisqaradi, davlatning pul banknotlarini muomalaga chiqarish bo'yicha xarajatlari kamayadi, korxonalar, tashkilotlar va aholi o'rtasidagi hisob-kitoblar tezlashadi. Plastik kartochkalarining qulayligi va afzallik tomonlari juda ko'p. Shu sababli «Asaka» bank kelgusida bank plastik kartochkalar orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib boradi.